AHOLINI IJTIMOIY HIMOYALASHDA MANZILLILIK VA “IJTIMOIY HIMOYA YAGONA REYESTRI”NING O‘RNI

UDK: 364

Xoliqov Arslonbek Xoliq o‘g‘li

Annotatsiya. *Tezisda ijtimoiy himoyada manzilli yordamni ta’minlashda yagona ma’lumotlar bazasining ahamiyati yoritiladi. “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimining joriy etilishi va uni boshqa idoralar bazalari bilan integratsiyalashuvi tizim samaradorligining asosiy omili sifatida tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy himoya, “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”, manzilli yordam, raqamli texnologiyalar, kam ta’minlangan oilalar, UNICEF.*

Аннотация. *В тезисе раскрывается значение единой базы данных в обеспечении адресной социальной поддержки. Внедрение информационной системы «Единый реестр социальной защиты» и её интеграция с базами других ведомств анализируются как ключевой фактор эффективности системы.*

Ключевые слова: *социальная защита, «Единый реестр социальной защиты», адресная помощь, цифровые технологии, малообеспеченные семьи, ЮНИСЕФ.*

Abstract. *The thesis highlights the role of a unified database in ensuring targeted social support. The introduction of the “Social Protection Unified Registry” information system and its integration with other agencies’ databases are analysed as a key factor of the system’s efficiency.*

Key words: *social protection, Social Protection Unified Registry, targeted assistance, digital technologies, low-income families, UNICEF.*

Aholini ijtimoiy himoyalash tizimining uzoq yillar yechilmay kelgan muammolaridan biri ko‘makka muhtoj shaxslarni aniqlashda yagona va ishonchli ma’lumotlar bazasining yo‘qligi bo‘ldi. Natijada haqli bo‘lmagan, turmush sharoiti nisbatan yaxshi shaxslar yordam olib, haqiqatan muhtoj aholi ro‘yxatdan chetda

qolgan. Bu ijtimoiy adolatga erishishga to‘sqinlik qilgan, aholida tizimga nisbatan ishonchsizlik uyg‘otgan va pirovardida kambag‘allik darajasining oshishiga sabab bo‘lgan.

Ushbu muammoning yechimi sifatida “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi joriy etildi. Endilikda oilalar yillik daromad va xarajatlari hisob-kitob qilinib, haqiqiy ehtiyoj asosida reyestrga kiritilmoqda. “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari orqali bolalar nafaqasi va moddiy yordamga elektron shaklda, inson omili aralashuvisiz onlayn ariza berish imkoniyati yaratildi. Tizim Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligining uzoq davolanishni talab etuvchi kasalliklar bo‘yicha bazasi bilan integratsiyalashtirilib, nazorat va aniqlik kuchaytirildi.

Islohotlar natijasida kam ta’minlangan nafaqa oluvchi oilalar soni so‘nggi uch yilda to‘rt barobar oshib, 1,9 millionga yetdi; bolalar nafaqasida inobatga olinadigan yosh 14 dan 18 gacha kengaytirildi. UNICEF ko‘magida 2021-yildan bolalarni ijtimoiy nafaqa bilan qamrab olish uch barobar oshdi va 2023-yilda bolalarning 40 foizi ushbu nafaqa bilan qamrab olindi. Shunday qilib, tizim samaradorligi bevosita raqamli reyestrning to‘liqligi va uning turdosh sohalar bazalari bilan integratsiyalashuviga bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ni joriy etish to‘g‘risida. Lex.uz, 10.11.2023-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.02.2023-yildagi PF-27-son farmoni (Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturi).
3. UNICEF. Ijtimoiy himoya. https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/ijtimoiy-himoya
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi rasmiy sayti.